

ULUG‘BEK HAMDAMNING “ISYON VA ITOAT” ROMANIDA INSON PSIXOLOGIYASINING BADIY TALQINI

Mamatova Madina Toirjon qizi

Osiyo xalqaro universiteti o‘zbek tili va adbiyoti magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21180232>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” romanida inson psixologiyasining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asardagi qahramonlar psixologiyasi, ruhiyati, ichki kechinmalari va ularning izlanishlari psixologik tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqotda badiiy-tahliliy, qiyosiy va psixologik metodlaridan foydalanildi. Natijalar asarda inson qalbining ichki murakkab ruhiy holatlari falsafiy va badiiy vositalar orqali yoritilganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot zamonaviy o‘zbek nasrida psixologizmning namoyon bo‘lish xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ulug‘bek Hamdam, Isyon va itoat, ruhiyat,, badiiy obraz, ichki monolog, ruhiy kechinma, zamonaviy nasr, inson psixologiyasi*

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПСИХОЛОГИИ ЧЕЛОВЕКА В РОМАНЕ УЛУГБЕКА ХАМДАМА «БУНТ И ПОКОРНОСТЬ»

Маматова Мадина Тоиржон кизи

магистрант направления «Узбекский язык и литература»

Osiyo xalqaro universiteti

Аннотация: *В статье анализируются художественная интерпретация психологии человека в романе Улугбека Хамдама «Бунт и покорность». Анализируются внутренний мир персонажей, их духовные переживания и психологические конфликты. В исследовании использованы методы литературного анализа, сравнительного изучения и психологической*

интерпретации текста. Полученные результаты показывают, что автор раскрывает сложность человеческой души посредством философских размышлений и внутренних монологов.

Ключевые слова: Улугбек Хамдам, психология личности, психологизм, внутренний монолог, художественный образ, современная узбекская проза

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF HUMAN PSYCHOLOGY IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL REBELLION AND OBEDIENCE

Mamatova Madina Toirjon qizi

Master's Student in Uzbek Language and Literature

Osiyo xalqaro universiteti

Abstract: *This article examines the artistic interpretation of human psychology in Ulugbek Hamdam's novel Isyon va itoat (“Rebellion and Obedience”). The study focuses on the characters’ inner world, spiritual experiences, and psychological conflicts. Literary analysis, comparative methods, and psychological interpretation were employed. The findings demonstrate that the author reveals the complexity of the human soul through philosophical reflections and internal monologues.*

Keywords: *Ulugbek Hamdam, human psychology, psychologism, literary character, inner monologue, spiritual experience, contemporary Uzbek prose*

Kirish (Introduction)

Hozirgi zamonaviy o‘zbek adabiyotida inson psixologiyasi va uning ichki olamini tasvirlash masalasi badiiy-estetik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mustaqillik davri nasrida insonning ma’naviy izlanishlari, ruhiy kechinmalari va hayot falsafasi bilan bog‘liq masalalar keng yoritila boshladi. Ana shunday yozuvchilardan biri Ulug‘bek Hamdam bo‘lib, uning “Isyon va itoat” romani inson psixologiyasini chuqur badiiy tahlil etishi bilan ajralib turadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi romandagi psixologik tasvir vositalarini aniqlash hamda insonning ichki ruhiyatini badiiy talqinini o‘rganishdan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Methods)

Tadqiqot jarayonida, badiiy-tahliliy metod, qiyosiy-tipologik metod, psixologik, tahlil metodi, interpretatsion yondashuv usullaridan foydalanildi. Shuningdek, M. Baxtin, Z. Freyd, N. Karimov, O. Sharafiddinov va boshqa olimlarning nazariy qarashlariga tayanildi.

Natijalar (Results)

Mazkur tahlillar shuni ko'rsatdiki, "Isyon va itoat" romanida inson ruhiyati bir necha psixologik qatlamlarda tasvirlangan.

- badiiy asarda ichki monolog qahramon xarakterini ochuvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Har bir qahramonlarning o'z-o'zi bilan suhbatlari ularning ruhiy iztiroblarini, ichki kechinmalarini, ruhini ochib beradi.

- ushbu romanda isyon va itoat tushunchalari inson ongidagi ichki kurash sifatida talqin etiladi. Bu qarama-qarshiliklar qahramonlarning ruhiy o'sishiga xizmat qiladi.

- adib ushbu asar orqali insonning ma'naviy tanlovlarini psixologik jihatdan asoslashga harakat qiladi. Ruhiy kechinmalari va falsafiy mushohadalar qahramonlar hayotidagi muhim burilishlarni yuzaga keltiradi.

- asarda yolg'izlik, ma'naviy bo'shliq va o'zlikni anglash kabi psixologik holatlar badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalangan.

Muhokama (Discussion)

Ulug'bek Hamdam ijodida psixologizm masalasi hozirgi zamonaviy o'zbek nasrining muhim xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi insonning tashqi harakatlarini emas, balki uning ichki olamida sodir bo'layotgan ruhiy jarayonlarni tasvirlashga intiladi. Asarda har bir qahramonlar hayot mazmunini izlash jarayonida murakkab ruhiy kechinmalarni boshdan kechiradilar. Bu jihat asarni ekzistensial va psixologik romanlar qatoriga yaqinlashtiradi. Asardagi falsafiy fikrlar insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lidagi izlanishlarini aks ettiradi. Shu sababli roman nafaqat badiiy, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ham ega. Adabiyotshunoslikda psixologizm badiiy asarning estetik qimmatini belgilovchi muhim mezonlardan biri sifatida qoraladi. Mashhur jahon

yozuvchisi M.Baxtinning ta'kidlashicha, badiiy matnda inson ongi va ruhiyatining ko'p qirraliligi personaj xarakterini chuqur ochib berishga xizmat qiladi. Shu ma'noda Ulug'bek Hamdam ijodi zamonaviy o'zbek nasrida psixologik tasvirning yangi bosqichini boshlab bergan adabiy hodisalardan biri hisoblanadi. Yozuvchi asarlarida insonning tashqi faoliyatidan ko'ra uning ichki dunyosini ochishga alohida e'tibor qaratadi. "Isyon va itoat" romanida ham voqealar rivoji qahramonlarning ruhiy holati bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlanadi. Asardagi har bir voqea va obraz inson qalbining ma'lum bir jihatini ochib berishga xizmat qiladi. Psixanalitik nazariya asoschisi Z.Freyd inson xulq-atvori va ruhiy kechinmalarining asosida ong osti jarayonlari yotishini ta'kidlaydi. Romandagi ayrim qahramonlar ruhiyatini tahlil qilish jarayonida ushbu nazariyaning ayrim jihatlarini namoyon bo'ladi. Ularning ichki iztiroblari, qaror qabul qilishdagi murakkab holatlari inson ruhiyatining ko'rinmas qatlamlari mavjudligini anglatadi. Asarda "isyon" tushunchasi oddiy norozilik emas, balki insonning haqiqat izlash yo'lidagi ichki kurashi sifatida talqin qilinadi. Qahramonlarning ruhiy izlanishlari ularni mavjud qarashlarni qayta ko'rib chiqishga majbur etadi. Shu sababli isyon insonning ma'naviy uyg'onish bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. "Itoat" esa ko'r-ko'rona bo'ysunish emas, balki oliy haqiqatni anglagan holda unga qalban yaqinlashish holatidir. Roman qahramonlari hayotning murakkab savollariga javob izlar ekan, o'z ichki olamiga murojaat qiladilar. Bu jarayonda muallif ichki monolog, ruhiy tahlil va falsafiy qarashlarda k unumli foydalanadi. Natijada qahramonlarning ichki dunyosi kitobxon ko'z o'ngida bosqichma-bosqich ochilib boradi. O'zbek adabiyotshunoslari N. Karimov va O. Sharafiddinovlarning qarashlariga ko'ra, badiiy asarning muvaffaqiyati inson ruhiyatini qay darajada haqqoniy aks ettira olishi bilan belgilanadi. "Isyon va itoat" romanida aynan shu tamoyil ustuvorlik qiladi. Muallif qahramonlarning hissiy kechinmalarini sun'iy emas, balki hayotiy va tabiiy tasvirlashga erishgan. Asardagi psixologik tasvirning yana bir muhim jhati – yolg'izlik obrazining talqinidir. Yolg'izlik qahramonlar uchun faqat ruhiy iztirob emas, balki o'zlikni anglash imkoniyati sifatida ham ko'rsatiladi. Inson yolg'izlikda o'z qalbiga quloq tutadi, o'zining asl mohiyatini

anglashga intiladi. Bu holat asarning falsafiy qatlamini yanada boyitadi. Asarda inson va jamiyat munosabatlari ham psixologik keng yoritiladi. Qahramonlar ko‘pincha jamiyatdagi mavjud qarashlar bilan o‘z ichki dunyosi o‘rtasida ziddiyatni his qiladilar. Ushbu ziddiyatlar ruhiy tangliklarni yuzaga keltiradi va personaj xarakterining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ulug‘bek Hamdam asarlarida ma’naviyat masalasi inson psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Muallif nazarida insonning ruhiy kamoloti uning ma’naviy yuksalishi bilan belgilanadi. Shu sababli qahramonlar boshidan kechiradigan ruhiy iztiroblar ma’naviy poklanish va o‘zlikni anglash yo‘lidagi zarur bosqich sifatida tasvirlanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Isyon va itoat” romani zamonaviy o‘zbek nasrida psixologik roman janrining yetuk namunalaridan biri hisoblanadi. Asarda inson qalbining eng nozik qatlamlari, ruhiy iztiroblari va ma’naviy izlanishlari yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Bu esa asarning nafaqat badiiy-estetik, balki falsafiy va ma’rifiy ahamiyatini yanada oshiradi.

Olimlarning qarashlari shuni ko‘rsatdiki, Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” romani inson psixologiyasini badiiy talqin etishning o‘ziga xos namunasi hisoblanadi. Asarda qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va ma’naviy izlanishlari psixologik tahlil vositasida chuqur yoritilgan. Yozuvchi ichki monolog, falsafiy mushohada, ramziy obrazlar va ruhiy konfliktlardan foydalanib, inson qalbining murakkab tabiatini ochib bergan.

Xulosa (Conclusion)

Yozuvchining “Isyon va itoat” romani inson psixologiyasini badiiy talqin etishning yorqin namunalaridan biridir. Asarda qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari va ma’naviy izlanishlari psixologik tahlil asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari romanda psixologizmning ichki monolog, falsafiy mushohada va ruhiy konfliktlar orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Asar zamonaviy o‘zbek nasrida inson ruhiyatini tasvirlash borasidagi muhim yutuqlardan biri hisoblanadi. Ulug‘bek Hamdam har bir qahramonlar xarakterini ochishda ichki monolog, falsafiy mushohada, ruhiy ziddiyat va psixologik konflikt kabi badiiy vositalardan samarali foydalangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, romanda psixologizm inson

ongida kechadigan murakkab jarayonlarni, ma'naviy kurashlarni hamda shaxsning o'zligini anglash yo'lidagi izlanishlarini yoritishda muhim badiiy omil vazifasini bajaradi. Asardagi “isyon” va “itoat” tushunchalari nafaqat ijtimoiy-falsafiy, balki ruhiy-psixologik mazmunga ham ega bo'lib, qahramonlarning ichki olamidagi qarama-qarshiliklarni ochib berishga xizmat qiladi. Roman qahramonlarining ruhiy holati, hissiy kechinmalari va ma'naviy dunyosi badiiy mahorat bilan ifodalanganligi sababli asar o'quvchini inson tabiatining murakkab qirralari haqida mushohada yuritishga undaydi. Shu jihatdan “Isyon va itoat” romani inson psixologiyasining badiiy talqinini yuksak darajada namoyon etgan, zamonaviy o'zbek nasrining estetik va g'oyaviy imkoniyatlarini boyitgan nodir asarlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, Ulug'bek Hamdam ushbu roman orqali inson qalbining sirli qatlamlarini, ruhiy izlanish va ma'naviy kamolot jarayonlarini badiiy-falsafiy mushohadalar asosida talqin etishga muvaffaq bo'lgan. Bu esa asarning nafaqat adabiy, balki psixologik va ma'naviy qiymatini ham yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdam U. Isyon va itoat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
2. Baxtin M. Estetika slovesnogo tvorchestva. – Moskva, 1986.
3. Freyd Z. Psixoanalizga kirish. – Toshkent, 2010.
4. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
6. Qo'shjonov M. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, 2018.
7. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2016.
8. Imomov K. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
9. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. – Toshkent: Sharq, 2011.
10. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.
11. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
12. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

13. Eshonqulov J. Badiiy tafakkur mezonlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
14. Forster E. M. Aspects of the Novel. – London: Edward Arnold, 1927.
15. Lotman Yu. M. Struktura khudozhestvennogo teksta. – Moskva: Iskusstvo, 1970.
16. Vygotskiy L. S. Psixologiya iskusstva. – Moskva: Iskusstvo, 1968.
17. Jung C. G. Arxetip va kollektiv ongsizlik. – Moskva: AST, 2007.